



**,m“KIBERXAVFSIZLIK” O’ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA
RAQAMLI XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHNING DOLZARB
MASALALARI.**

Andijon Davlat Universiteti

Huquq – Iqtisod fakulteti

Milliy G’oya ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi

yo’nalishi 1-kurs talabasi

Sohibjonov Jaloliddin Fazliddin o’g’li

Annotatsiya. Mazkur maqolada kiberxavfsizlik (Kibermuhofaza) va uning asosiy tushunchasi hamda uning hozirgi kundagi o’rni, davlat va jamiyatga qanchalik muhumligi, kiberxavflarni oldini olish hamda jamiyatda kiberjinoyatlarga qarshi kurshish chora tadbirlarini olib borish, kiberjinoyatlarni oldini olish uchun ko’rsatmalar, axborot xavfsizligini ta’minlash, kiberhuquq, raqamli texnologiyalar davrida raqamli xavfsizlikni ta’minlash haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: kiberxavfsizlik, axborot xavfsizligi, raqamli iqtisodiyot, kiberxavf, kiberjinoyat, axborot tizimlari, O’zbekiston.

Abstract. This article discusses cybersecurity (Cyberprotection) and its basic concept and its current role, its importance to the state and society, preventing cyber threats and implementing measures to combat cybercrime in society, guidelines for preventing cybercrime, ensuring information security, cyber law, and ensuring digital security in the digital age.

Keywords: cybersecurity, information security, digital economy, cyber threat, cyber crime, information systems, Uzbekistan.

Аннотация. В данной статье рассматриваются кибербезопасность (Киберзащита) и ее основные понятия, а также ее современная роль, ее важность для государства и общества, предотвращение киберугроз и



принятие мер по борьбе с киберпреступностью в обществе, рекомендации по предотвращению киберпреступности, обеспечение информационной безопасности, киберправо, обеспечение цифровой безопасности в эпоху цифровых технологий.

Ключевые слова: кибербезопасность, информационная безопасность, цифровая экономика, киберугроза, киберпреступность, информационные системы, Узбекистан.

Kirish

Bugungi globalashuv sharoitida butun dunyoda kompyuter texnologiyalarining jadal rivojlanishi va axborot-kommunikatsiya tizimlarining keng joriy etilishi, jamiyatning kompyuter texnologiyalari va axborot kommunikatsiyalariga bo'lgan qaramligi va xavfsizligi keltirib chiqarmoqda. Bu esa axborot aloqalarini va axborot xavfsizligini ta'minlash hamda kelgusida kiberxavfsizlikning o'rni muhim ekanligini anglatadi.

Davlat boshqaruvi, bank-moliya tizimi va shaxsiy ma'lumotlarning raqamli makonga ko'chishi kiberjinoyatchilikni bir necha barobar oshirdi. Endilikda virtual dunyoda ham, har qanday xuruj tabiiy qurilmalar ishini izdan chiqarishi, balki milliylikka ham jiddiy zarar yetkazishi mumkin.

Asosiy qism

Kiberxavfsizlik tushunchasi;

“Kiberxavfsizlik” (yoki kibermuhofaza) – bu internetga ulangan tizimlarni (texnika, dasturiy ta'minot va ma'lumotlar) kiber tahdidlardan himoya qilish hisoblanadi.¹ Ya'ni hozirgi kunda biz foydalanayotgan telefon yoki kompyuterlar va boshqa internet tarmog'iga ulangan qurilmalar hamda ularda mavjud messenjerlar (telegram, instagram, WhatsApp, Google) va shunga o'xshagan internet tarmoqlari orqali amalga oshiriladigan kiberjinoyatlarni oldini olish, axborot xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash hisoblanadi. Shu o'rinda “kiberxavf” tushunchasiga ozgina to'xtalib ketsak. Kiberxavf bu biz foydalanayotgan

¹ <https://toshkent-vil.adliya.uz/>



qurilmalarga yoki raqamli texnologiyalarga virtual hujum hisoblanadi, ya'ni messenjerlar yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali shaxsiy ma'lumotlarga tajovuz qilish, o'g'irlik qilish banklarni va davlatga oida ma'lumotlarni o'g'irlash yoki tajovuz qilish kiberxavf yoki kiberjinoyat hisoblanadi. Kiberjinoyatlarning ichida eng ko'p muhokama qilinadigoni bu *xakerlik* hisoblanadi. Bu qurilma va saytlarga ruxsatsiz kirish va shaxsiy ma'lumotlar yoki axborotlarni o'g'irlash hamda tizimni nazorat qilishga urinishlari hisoblanadi. Bunday muammolarni ya'ni kiberxavf va kiberjinoyatlarni oldini olishda hamda ularni nazorat qilishda Kiberxavfslik juda muhim hisoblanadi.

Hozirgi kundagi kiberjinoyatlar va ularni oldini olish;

O'zbekistonda kiberjinoyatlar, umumiy jinoyatlarning salkam yarmini tashkil qiladi. IIV ularning sodir etilishi to'g'risida ma'lumot berdi. O'zbekistonda kiberjinoyatlarning 98 foizi bank kartalari bilan bog'liq bo'lib, fuqarolar 4 yilda 1,9 trln so'm zarar ko'rgan. 2024-yilda umumiy jinoyatlarning 44,4 foizi kiberjinoyatlar hissasiga to'g'ri keldi. Mashhurlar qiyofasidan foydalangan holda jinoyat sodir etish (dipfeyk) ham ommalashmoqda.

Vazirlik vakiliga ko'ra, 2021–2024-yillarda kiberjinoyatlar oqibatida fuqarolarning 1 trillion 909 milliard so'mdan ortiq mablag'i talon-toroj qilingan. 2024-yilning o'zida esa zarar 603 milliard so'mni tashkil etdi.²

Kiberxavfsizlikni ta'minlash bo'yicha tavsiyalar;

Kiberxavfsizlikni ta'minlashda avvalo har bir fuqaro o'z o'ziga mas'uliyatli bo'lishi, foydalanayotgan mobil aloqa operatori yoki boshqa FISHING ma'lumotlaridan o'zga begona kimsalar foydalanmaslikka yo'l qo'ymasligi ya'ni firibgarlar tomonidan sms, telegram yoki emaillar orqali yuborilgan soxta rasm, video va fayllar orqali sizning bank kartalaringizga ulanib pullaringizni yechishi, shaxsiy ma'lumotlaringizdan foydalanib kreditlar olishi yoki sizning nomingizdan boshqa jinoyatlar sodir etishi, hamda siz orqali sizning yaqinlaringizdan ham ushbu maqsad yo'lida foydalanishiga yo'l qo'ymasligingiz kerak. Buning uchun

² <https://www.gazeta.uz/>



foydalanayotgan qurilma yoki messengerlarga ikki bosqichli murakkab parollardan, Identifikatsiyalardan foydalanishimiz, norasmiy dasturlardan, havolalardan, ilovalardan foydalanmasligimiz, taqqiqlangan saytlarga kirmasligimiz, sizga messengerlar orqali kelayotgan video, rasm, fayl yoki havolalarga kirmasligingiz o'zingiz va jamiyat havfsizligi uchun muhim hisoblanadi. Shu o'rinda sizga o'zini bank yoki boshqa davlat organi hodimi sifatida tanishtirib sizning shaxsiy ma'lumotlaringizni yoki sms kodlar so'rasa ularga taqdim etmasligingizni so'raymiz chunki davlat organi hodimlari sizdan hech qachon bunday ma'lumotlarni telefon orqali talab qilmaydi. Har birimiz o'z havfsizligimizni ta'minlasak jamiyat ham barqaror bo'lad. Zero ogohlik davr talabi.

O'zbekistonda kiberjinoyatlarni oldini olish qonun bilan tartibga solingan;

O'zbekiston Respublikasida bunday raqamli va kiber jinoyatlarni tartibga solish hamda oldini olish uchun yetarli chora tadbirlar, qonunlar va me'yoriy normativ huquqiy hujjatlar mavjud. Jumladan O'zbekiston respublikasida "Kiberxavfsizlik" to'g'risida qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2022- yil 25-fevralda qonun qabul qilingan. Mazkur qonun Senat tomonidan 2022- yil 17-mart kuni ma'qullangan va ushbu yilning 17-iyundan boshlab kuchga kirgan. Kiberxavfsizlik to'g'risidagi qonun 1 ta bo'lim 8 ta bob va 40 ta moddadan iborat bo'lib maqsadi kiberxavfsizlik sohasidagi barcha munosabatlarni tartibga soladi va nazorat qiladi.³

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.04.2022-yil O'RQ – 764-son "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonuni imzolandi.

Qonunda sohadagi asosiy tushunchalarga ta'rif berilgan bo'lib, unga ko'ra, kiberjinoyatchilik – axborotni egallash, uni o'zgartirish, yo'q qilish yoki axborot tizimlari va resurslarini ishdan chiqarish maqsadida kibermakonda dasturiy ta'minot va texnik vositalardan foydalanilgan holda amalga oshiriladigan jinoyatlar yig'indisi hisoblanadi.⁴

³ <https://lex.uz/>

⁴ "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonun (O'RQ-764-son, 15.04.2022-y.)



Xulosa

Hozirgi kunda raqamli taraqqiyot hayotimizning ajralmas bir bo'lagiga aylanib ulgurgan. Shuningdek O'zbekistonda kiberjinoyatlarni oldini olish qonun bilan belgilab qo'yilgan va yetarlicha chora tadbirlar olib borilmoqda. Hozirgi kunda kiberjinoyatlarni oldini olish, aniqlash va bartaraf etish jamiyat barqarorligini ta'minlash, kiberxavfsizlik sohasini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlar olib borish va malakali mutaxassislar yetishtirish dolzarb masalalardan biri xisoblanadi.

Shu bilan birga har bir fuqaro o'z shaxsiy ma'lumotlar havfsizligiga befarq bo'lmasa, axborot xavfsizligini ta'minlansa jamiyat ham barqaror bo'ladi, davlatda raqamli rivojlanish bilan birgalikda kiberxavfsizlik tizimini ham mustahkamlash muhim omil xisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

S.K.Ganiyev, A.A.Ganiyev, Z.Q.Xudoyqulov – Kiberxavfsizlik asoslari.

Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi Qonun O'RQ-764-son, 15.04.2022-y.

Foydalanilgan elektron adabiyotlar;

1. <https://toshkent-vil.adliya.uz/>
2. <https://www.gazeta.uz/>
3. <https://lex.uz/>"
4. www.wikipedia.uz